



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA YORDAMIDA KRIPTO-AKTIVLARNI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARINI TA'MINLASH

Jurayev Axmad

Denov tadbirkolik va pedagogika instituti

ORCID: 0009-0005-8233-6708

jorayevahmad446@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida kripto-aktivlar bozorining soliq ma'muriyatchiligiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot virtual soliq aktivlari, soliqlardan daromadlarni yashirish hamda transchegaraviy nazorat qilishdagi murakkabliklar yoritilgan. O'zbekistonda 2018-2025 yillarda kripto-aktivlar sohasini huquqiy tartibga solish qoidalari, litsenziyalash tizimi, "Regulatory Sandbox" mexanizmi va kripto-faoliyat uchun yuridik kuchga ega bo'lgan mexanizmlar tahlil qilingan. Iqtisodni soliqqa tortish, kripto-bozor ustidan samarali nazoratni kuchaytirish hamda soliq tushumlarini tejash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, kripto-aktivlar, kriptovalyuta, blokcheyn, soliq ma'muriyatchiligi, soliq hisoblash, iqtisodiyot, virtual, mining, soliq nazorati, Regulatory Sandbox.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ МЕХАНИЗМОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ КРИПТОАКТИВОВ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Джурсаев Ахмад

Денауский институт предпринимательства и педагогики

Аннотация. В данной статье анализируется влияние рынка крипто-активов на налоговое администрирование в условиях цифровой экономики. В исследовании освещены вопросы виртуальных налоговых активов, сокрытия доходов от налогообложения, а также сложности трансграничного контроля. Проанализированы правила правового регулирования сферы крипто-активов в Узбекистане в 2018-2025 годах, система лицензирования, механизм «Regulatory Sandbox» и правовые основы, имеющие юридическую силу для крипто-деятельности. Разработаны научно-практические предложения по налогообложению экономики, усилению эффективного контроля над крипто-рынком и увеличению налоговых поступлений.

Ключевые слова: цифровая трансформация, крипто-активы, криптовалюта, блокчейн, налоговое администрирование, расчет налога, экономика, виртуальный, майнинг, налоговый контроль, Regulatory Sandbox.

ENSURING MECHANISMS FOR THE TAXATION OF CRYPTO ASSETS THROUGH DIGITAL TRANSFORMATION

Jurayev Akhmad

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. *This article analyzes the impact of the crypto-asset market on tax administration in the context of the digital economy. The study highlights virtual tax assets, the concealment of income from taxation, and the complexities of cross-border control. The legal regulation rules of the crypto-asset sector in Uzbekistan during 2018-2025, the licensing system, the “Regulatory Sandbox” mechanism, and the legal framework for crypto activities were analyzed. Scientific and practical proposals are developed for the taxation of the economy, strengthening effective control over the crypto market, and increasing tax revenues.*

Keywords: *digital transformation, crypto-assets, cryptocurrency, blockchain, tax administration, tax calculation, economy, virtual, mining, tax control, Regulatory Sandbox.*

Kirish.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur'atlarda rivojlanib, iqtisodiy aloqalarni keltirib chiqaradi. foyda, blokche paydo bo'lgan texnologiyalari, kripto-aktivlar va energiya an instrumentlarning bo'lishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va iqtisodiy omillarga ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bir qatorda virtual aktivlar bozori ham kengayib borib, bu asosiy davlat oldiga yangi huquqiy, iqtisodiy va fiskal ishlab chiqaruvchilarni qo'ymoqda.

So'nggi davr kripto-aktivlar global moliyaviy muhim elementiga aylanib nazorat. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda global miqyosda kriptovalyuta egalari soni 2025 yilda 580 milliondan oshdi va 2028 yilga borib deyarli 1 milliardga yetishi prognoz qilinmoqda, ularning umumiy kapitalizatsiyasi 2026 yil boshida 3.22 trillion dollarga yetgan (CoinLaw, 2026).. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kripti aktivlar va ularning harakati jadav kengayib borayotgan ekan, har qanday jamiyat soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish jarayoni va turli xil soliq xavflaridan himoyalaniishi uchun albatta kripto valyutalar va ularni soliqqa solish chora tadbirlarini kuchaytirish zaruriyatini anglatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Kriptoaktivlar va ularning soliq ma'muriyatchiligiga ta'siri bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda asosan kriptoaktivlarning iqtisodiyotdagi o'rni, soliqqa tortish muammolari, noqonuniy moliyaviy operatsiyalar, blokcheyn texnologiyasining afzalliklari va soliq xavflari masalalari o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan Xihan Xiong va Junliang Luo (2024) lar kriptovalyutalarni tartibga solishning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilishgan. Mualliflar kriptoaktivlarning anonimligi sababli soliqdan qochish va noqonuniy moliyaviy operatsiyalar xavfi ortayotganini ta'kidlashadi (CoinLaw, 2026).

Hugo Almeida, Pedro Pinto va Ana Fernández Vilas tomonidan 2023-yilda chop etilgan “A Review on Cryptocurrency Transaction Methods for Money Laundering” maqolasida kriptovalyutalar orqali pul yuvish usullari hamda soliq nazorati bilan bog'liq xavflar tadqiq etilgan (Xihan Xiong va boshq., 2024).

Ljutova O.I. va Fialkovskaya I.D. ning 2021-yilda e'lon qilingan “Blockchain technology in tax law theory and tax administration” nomli ilmiy maqolasida blokcheyn texnologiyasining soliq ma'muriyatchiligidagi imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda aqlli kontraktlar va avtomatlashtirilgan audit tizimlarining samaradorligi asoslab berilgan (Hugo va boshq, 2023).

Michael Fröhlich va hamkorlari tomonidan 2022-yilda chop etilgan “Blockchain and Cryptocurrency in Human Computer Interaction” tadqiqotida kriptotizimlarining xavfsizlik, ishonch va nazorat bilan bogʻliq jihatlari oʻrganilgan (Michael, 2022).

Mahalliy olimlardan Kiyosov Sherzod 2023-yilda yozgan “Blockchain Technologies and Digitalization in the Tax System: Evidence From Uzbekistan” maqolasida blokcheyn texnologiyalarining Oʻzbekiston soliq tizimidagi ahamiyatini tahlil qilgan. Muallif raqamlashtirish orqali soliq tizimida shaffoflik va samaradorlik oshishini qayd etgan (Kiyosov, 2023)

Toʻlakov Ulugʻbek Toshmamatovich 2023-yilda yozgan “Soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirishda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish” maqolasida blokcheyn yordamida soliq firibgarligini kamaytirish va audit tizimini soddalashtirish imkoniyatlarini yoritgan (Toʻlakov, 2023).

Siddikov Ulugbek Komiljonovich tomonidan 2022-yilda chop etilgan “Cryptocurrencies: Possible Risks and Its Prospects for Uzbekistan” maqolasida esa kriptovalyutalarning iqtisodiyot uchun istiqbollari hamda soliq xavflari tadqiq qilingan (Siddikov, 2022).

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, kriptofaktivlar iqtisodiyotning raqamlashuviga xizmat qilayotgan boʻlsa-da, ular bilan bogʻliq anonim tranzaksiyalar, soliqdan qochish va noqonuniy moliyaviy operatsiyalar soliq maʼmuriyatchiligida yangi xavflarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli zamonaviy soliq tizimida blokcheyn texnologiyasi, Big Data va sunʼiy intellekt asosida nazorat mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda kriptofaktivlarning soliq maʼmuriyatchiligiga taʼsiri hamda ular bilan bogʻliq soliq xavflarini oʻrganishda qiyosiy tahlil, statistik tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Shuningdek, kriptovalyutalar va ularni soliqqa tortish boʻyicha Oʻzbekistonda yaratilgan huquqiy jihatlar va sharoitlar tizimi yillar kesimidagi tendensiyasi oʻrganib chiqildi. Tadqiqot natijasida soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish boʻyicha ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Raqamli transformatsiyani hisobga olgan holda soliq nazorati va soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirishda bir qator noaniqliklar mavjud. Xususan, virtual valyutalar (kriptovalyutalar) bilan bogʻliq ishlab chiqarish, saqlash va hisob-kitob jarayonlarini tartibga soluvchi soliq qonunchiligi noaniqligi soliq toʻlashdan qasddan qochish imkoniyatlarini yaratadi.

Kripto-aktivlarning markazlashmagan tabiati, anonimlik darajasining yuqoriligi hamda blokcheynning transchegaraviy ularni nazorat qilish va soliqqa tortish jarayonini murakkablashtirish. mablagʻlardan, virtuellardan aktivlardan daromad holda daromad, soliqlardan va ularni saqlab qolishni amalga oshirishi mumkin boʻlgan holatlari davlat soliq organlarida moddiy yordam keltirmoqda. iqtisodiy, iqtisodiy barqarorlikni samarali soliq maʼmuriyatchiligini tashkil etish hamda soliq miqdorini oshirish masalaga aylanmoqda.

Soliq xavfi quyidagi omillar bilan bogʻliq:

1. Blokcheyn texnologiyasiga asoslangan raqamli platformaning aniq yurisdiksiyaga tegishliligini aniqlashning murakkabligi;
2. Davlat organlariga nazorat funksiyalarini yetarlicha berish zaruratining yoʻqligi.

Kripto-aktivlar bozori soʻnggi yillarda tez surʼatlarda rivojlanib, yangi iqtisodiy imkoniyatlar va biznes yuritish usullarini yaratdi. Shu bilan birga, u soliq toʻlovchilar (ham jismoniy, ham yuridik shaxslar) tomonidan oʻz daromadlari va boyliklarini soliq organlari hamda boshqa tartibga soluvchi idoralardan yashirish uchun foydalanilishi mumkin boʻlgan imkoniyatlarni ham yuzaga keltirdi. Kripto-aktivlardan foydalangan holda soliqdan qochish va soliqdan boʻyin tovlash xavflari ayniqsa soliq toʻlovchilar kripto-aktivlarni xorijda saqlagan va

ular bilan operatsiyalarni amalga oshirgan hollarda yanada kuchliroq namoyon bo'ladi. Masalan, xorijiy vositachilar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar soliq to'lovchining rezident bo'lgan mamlakatidagi soliq organlari uchun uning daromadlari va boyligi ustidan nazoratni qiyinlashtiradi, natijada ularning to'g'ri deklaratsiya qilinishi va soliqqa tortilishi ta'minlanmay qolishi mumkin.

1-jadval.

O'zbekistonda kripto-aktivlar sohasining huquqiy tartibga solinishi bosqichlari

Sana	Asosiy o'zgarish	Huquqiy asos / izoh
2018 yil sentyabr	Kripto-birja tushunchasi va litsenziyalash tizimi joriy etildi	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.07.2018 yildagi PQ-3832-son
2019 yil dekabr	Kriptovalyutani to'lov vositasi sifatida ishlatish taqiqlandi	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi direktorining buyrug'i, 20.12.2019 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3127-3
2021 yil sentyabr	Kriptodan to'lov vositasi sifatida foydalanish taqiqi yana tasdiqlandi	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bayonoti
2022 yil aprel	Kripto-aktivlarni qazib olish (mining) faoliyatiga ruxsat berildi. (yuridik shaxslar uchun) "Regulatory Sandbox" joriy etildi Milliy provayderlar orqali kripto sotib olish tartibi joriy etildi	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.04.2022 yildagi PF-121-son
2022 yil avgust	Kripto-kartalar joriy etildi	Kapitalbank, UzNEX va Mastercard hamkorligi
2023 yil sentyabr	Istiqbolli loyihalar milliy agentligi yagona litsenziyalovchi organ etib belgilandi	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 6 sentyabr, 3PY-866-son Farmoni
2024 yil 20 aprel	Kriptoaktivlar va noqonuniy mining faoliyati uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik joriy qilindi	O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 19.01.2024 yildagi O'RQ-899-son
2025 yil noyabr	Kripto-aktivlar sohasini yanada rivojlantirish va tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha yangi bosqich	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.11.2025 yildagi PQ-359-son

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi.

Kripto-aktivlar bozorining O'zbekistonda tartibga solinishi 2022 yildan boshlab sezilarli darajada rivojlandi. 2022 yil aprelda yuridik shaxslarga kripto-aktivlarni qazib olish (mining) faoliyatiga ruxsat berilib, litsenziya talab qilinmay, faqat O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligida ro'yxatdan o'tish majburiyati belgilandi. Shu bilan birga, "Regulatory Sandbox" joriy etilib, milliy provayderlar orqali kripto sotib olish tartibi 2023 yil 1 yanvardan kuchga kirdi. Bu chora-tadbirlar kripto-aktivlardan foydalanishda nazoratni kuchaytirish va faoliyatni qonuniylashtirishga xizmat qildi, shuningdek, raqamlashtirilgan soliq ma'muriyatchiligi uchun nazorat mexanizmlarini yaratdi.

2023 yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi yagona litsenziyalovchi organ etib belgilandi, bu orqali kripto-birja, mining pool, depozitariy va kripto-do'kon faoliyati markazlashtirilgan tartibda litsenziyalandi. 2024 yil esa regulyatsiyaning "faol nazorat yili" bo'lib, 20 aprel kuni ZRU-899 qonuni kuchga kirib, kriptoaktivlar va noqonuniy

mining faoliyati uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik joriy qilindi. Shu yil davomida Crypto Week Uzbekistan 2024 tadbiri o'tkazilib, litsenziya bojlari belgilandi va byudjetga tushumlar kirishi orqali soliq tushumlarini raqamlashtirish samaradorligi oshirildi.

2025 yil noyabrida Prezident PQ-359 qarori qabul qilinib, kripto-aktivlar sohasini yanada rivojlantirish va tartibga solishning yangi bosqichi boshlanganini bildiradi. Shu tarzda, 2022–2025 yillar O'zbekistonda kripto-bozorni nazorat ostida rivojlantirish, raqamlashtirilgan soliq ma'muriyatchiligi tizimini mustahkamlash va soliq tushumlarini oshirish jarayonini aks ettiradi.

Biroq, Kriptovalyutalarga soliq qo'llashda o'rta darajadagi liberal yondashuvni qo'llash zarur, aks holda bu soha "kulrang" va "qora" iqtisodiyot zonalariga ko'chib, byudjet uchun o'lchab bo'lmaydigan yo'qotishlarga olib keladi. Shu sababli O'zbekistonda kripto-aktivlar bozorini tartibga solish va nazorat mexanizmlarini joriy etish jarayoni, xususan, 2022–2025 yillardagi O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligida litsenziyalash tizimi, Regulatory Sandbox va qonuniy javobgarlik mexanizmlari, raqamlashtirilgan soliq ma'muriyatchiligini samarali amalga oshirish uchun muhim bo'ldi.

Shu bilan birga, raqamli virtual aktivlarning aylanishini tartibga soluvchi huquqiy maydonni shakllantirish bo'yicha harakat qilmaslik quyidagi xavflarning ortishiga xizmat qiladi:

- davlat byudjeti uchun soliq daromadlarining yetarlicha olinmasligi;
- mamlakat hududida faoliyat yuritayotgan iqtisodiy subyektlar tomonidan "kulrang" iqtisodiyot sxemalarining ko'payishi;

- taqiqlangan moddalar aylanmasining oshishi. (Ishxanov, 2022)

Shuningdek, mamlakatda soliq xavflarining ortishiga biznes-modellarning transformatsiyasi, ularning ko'lamining kengayishi hamda raqamli mahsulot va xizmatlarning jadal sur'atlarda tarqalishi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur jarayonlar natijasida iqtisodiy operatsiyalarning chegaraviy va virtual xarakter kasb etishi, ularni aniq identifikatsiya qilish va nazorat qilishni murakkablashtirib, muayyan mamlakatda soliq bazasini to'g'ri aniqlash imkoniyatlarini cheklaydi.

Statistik ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda, ya'ni 2025 yilda, dunyo aholisining 74 foizi internetdan foydalanmoqda, bu bir yil avvalgi 71 foiz ko'rsatkichga nisbatan oshgan. Mutlaq sonlarda bu 6 milliard kishiga teng bo'lib, 2024 yildagi 5,8 milliarddan ko'payganini anglatadi. Yillik o'sish sur'ati ham biroz oshib, avvalgi 2,9 foizdan 3,3 foizga yetdi.

O'zbekistonda internet auditoriyasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar–avgust oylarida O'zbekiston aholisi orasida internetdan foydalanuvchilar ulushi 94,2 % ni tashkil etgan. Internet qamrovining kengayishi bilan bir qatorda, uning sifati va tezligi ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kriptoaktivlar va blokcheyn texnologiyalarining rivojlanishi soliq ma'muriyatchiligida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda qator soliq xavflarini ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, anonim tranzaksiyalar, markazlashmagan tizim va transchegaraviy operatsiyalar soliq nazoratini murakkablashtirib, soliqdan qochish holatlarining ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyasi orqali ma'lumotlarning shaffofligi va xavfsizligini ta'minlash imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

kriptoaktivlarni soliqqa tortish bo'yicha alohida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

kripto birjalar va raqamli platformalar faoliyati ustidan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;

soliq ma'muriyatchiligida blokcheyn, Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;

kriptoaktivlar bilan bog'liq operatsiyalar monitoringini avtomatlashtirish; xalqaro tajriba asosida soliq xavflarini boshqarish tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar/Jumepamuya/References:

CoinLaw. (2026). *Cryptocurrency statistics : Growth, trends, and market analysis.*

Hugo Almeida, Pedro Pinto, Ana Fernández Vilas A.,(2023) *Review on Cryptocurrency Transaction Methods for Money Laundering // arXiv preprint.*

International Telecommunication Union (ITU) (2025), *Facts and Figures*

Kiyosov Sherzod (2023). *Blockchain Technologies and Digitalization in the Tax System: Evidence From Uzbekistan // American Journal of Business Practice № 1.*

Lyutova O.I., Fialkovskaya I.D. (2021). *Blockchain technology in tax law theory and tax administration // RUDN Journal of Law.- Vol. 25. – № 3. – P. 509–524.*

Michael Fröhlich(2022) *Blockchain and Cryptocurrency in Human Computer Interaction // arXiv preprint.*

OECD (2025), *Crypto-Asset Reporting Framework Monitoring and Implementation Update, Global Forum on Transparency and Exchange of Information for Tax Purposes, OECD, Paris,*

Siddikov Ulugbek Komiljonovich (2022). *Cryptocurrencies: Possible Risks and Its Prospects for Uzbekistan // Science and Research. – 2022. – № 4.*

To'lakov Ulug'bek (2023). *Toshmamatovich Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish // Digital Transformation and Artificial Intelligence.Vol. 3. – № 2.*

Xihan Xiong, Junliang Luo (2024). *Global Trends in Cryptocurrency Regulation // arXiv preprint.*

Ишханов (2022). *Валютные эффекты применения налоговой политики / А.В. Ишханов, Е.Ф. Линкевич // Вестник Волгоградского государственного университета. Экономика.–Т. 24. - № 3. – С. 158-170*